
RASMIY MUNOSABAT

Farg'ona shahar markazidagi Saylgoh ko'chasida tadbirkorlar tomonida qurilayogan ko'p qavatli uylarning oldi tomonida piyodalar o'tadigan joylarga turli qurilish chiqindilarni tashlab qo'yilgani aholi va transportlarning erkin harakatlanishiga noqulayliklar tug'dirayotganligi yuzasidan murojaat tarqaldi. Shuningdek, uy atrofiga ekilgan noyob daraxtlarning sug'orilmayotganligi ham ta'kidlangan.

Mazkur murojaat Farg'ona shahar hokimligi mas'ullari va tadbirkorlar ishtirokida o'rganildi. Quruvchilarga tushuntirish ishlari olib borilib, piyodalar yo'lagiga olib chiqilgan turli hil qurilish chiqindilari tozalandi va mavjud daraxtlar tagi ochilib, suv quyiladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-02 19:44:49